

## **G'ARBIY SIBIRDAGI O'ZBEKLAR TARIXI VA TAQDIRIGA QISQA NAZAR**

*Elmuratova Shoxista Ablakulovna*

[FENDER4555@MAIL.RU](mailto:FENDER4555@MAIL.RU)

ORCID 0009000154934357

*ALFRAGANUS UNIVERSITY "XALQARO MUNOSABATLAR VA TARIX"*

*kafedrası tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori*

G'arbiy Sibir asrlar davomida deyarli Buxoro koloniyalariga aylanib qolayozgandi. Sibir Buxoriylari bu yerda yashayotgan tatarlar (aslida turkiy xalqlar) bilan so'zlashib asta-sekin o'z tillarini ma'lum ma'noda o'zgartirib borganlar.

U yerlarga ko'chib borgan savdogarlar, harbiy askar va diniy ulamolar o'z missiyalarini bajarish maqsadida turli qishloq va mahallalarga asos solganlar. Aynan buxoroliklar birinchi marta Sibirga mushukni olib borishgan. Dunyoga mashhur bo'lgan "Sibir mushugi" aslida Turkistonliklar tomonidan u yerga olib borilgan va tarqatilgan. Sibirdagi Uchmir tog'i avvaldan turkiylarning uch din qo'shilgan muqaddas makoni hisoblangan, aynan bu yerlar biz keltirayotgan davrlardan ham necha ming yilliklar oldin turkiy qavmlarning ona yerlaridan bo'lganligini ko'rsatadi. Uch boshli tog'ni qadim turkiylar muqaddas hisoblashgan va unda bir xosiyat bor deb bilganlar. Ancha-muncha ko'p sonli va turli tarmoqli turkiy qabilalar Sibir, Oltoy, O'rta Osiyo, Sharqiy Turkiston va boshqa joylarda qadim zamonlardan beri yashab kelgani hammaga ma'lum. Bizning ajdodlarimiz ham bugungi O'zbekiston chegarasidagina emas migrasion jarayonlar to'liqida bemalol u yerda, bu yerda yashaganlar. Shuning uchun ham "Dashti Qipchoq va G'arbiy Sibir hududlari, qadimgi Qrim yerlarida ular yashamagan, u yerdan kelganlar bizga begona" degan savolning qo'yilishining o'zi noto'g'ri buladi. Biz o'zbeklar tarixini

o'rganishdagi o'sha davrdagi erkin migrasion to'liqlar va sharoitlarni inobatga olishimiz lozim.

Turkiylarning asl vatani Oltoy, Sibir O'rta Osiyo, Sharqiy Turkiston, Xurosonning katta qismi va boshqa yerlardir. Navbatdagi migratsiya to'liqlari umumiy nom ostida G'arbiy Sibirda Buxoro qishloqlari paydo bo'lgan. U yerlarda O'zbekistonning hamma yeridan ko'chib borgan xalqlarni uchratish mumkin edi<sup>1</sup>. Hatto Toshkentdan borgan insonlarning o'z mavzolari bo'lgan. Tarixiy evirilishlar sabab rus mustamlakachilarining qadami bu yerga ham yetib borgan va O'rta Osiyoliklardan tashkil topgan G'arbiy Sibirdagi ko'plab qishloqlarni ham ular o'z tasarrufiga kiritgan.

Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, bu yerga Bahovuddin Naqshbandiy tariqatining vakillari ham kelib islom dini va mazkur tariqatni tarqatish va mustahkamlash maqsadida bu yerlarga kirib kelganlar. Buxoro aholisining Sibirda ko'payishiga ushbu tariqat ta'siridagi migrasion to'liqlar ham ta'sir ko'rsatgan.

XX asr boshlarida Tyumen (turkiyda Tuman) Tobolsk va Tar uyezdlarida Buxoro volosti mavjud bo'lgan. U yerda asosan Buxorolik savdogarlar va islom ulamolari istiqomat qilganlar.

Ular hozirgi Tyumen, Tobolsk, Tara, Tomsk hududlari bo'ylab joylashgan va O'rta Osiyo hududlari bilan doimiy savdo-sotiq ishlarini olib borganlar.

Bundan tashqari ular hunarmandchilik, qishloq xo'jaligi, chorvachilik bilan ham shug'ullanganlar.

Tyumenda Buxoro nomli rasmiy nomli shahar-posyolkalar mavjud bo'lgan. Tyumyendan uncha uzoq bo'lmagan Emboyevarlar, To'rayevlar, Madyarovlar, Merimovlar va shu kabi nomli qishloqlarida ham asosan Buxoro va uning atroflaridan kelgan aholi istiqomat qilgan. Shuningdek, bugungi Omsk viloyati

---

<sup>1</sup> <http://e-tarix.uz/vatan-tarixi/1082-garbiy-sibirdagi.html>  
[www.pedagoglar.org](http://www.pedagoglar.org)

hududlarida ham XV-XVII asarlarda Buxorodan ko'chib kelgan xalqlarning Yalanko'l, Ulan ko'l, Kazatovo, Aubatkan, Tuzqazgan va boshqa joy nomlari mavjud.

Rus hokimiyati Buxoro savdogarlarini qo'llab-quvvatlagan. Buxoroliklarni Sibirga kelishini qo'llab-quvvatlab ularni soliqlardan batamom ozod qilish, ularga hurmat-ehtirom ko'rsatish vazifalari yuklatilgan.

Sibir yerlarini o'zlashtirishida Buxoroliklar sadogarlarga ehtiyoj tug'ilgan. Ular necha ming yillardan beri savdogarlik ilmi va an'analarini asrab kelayotgan bo'lib, bu tadbirkorlarning malaka va tajribalarini puxta o'rganishga rus jamiyati va davlatida zaruriyat va ehtiyoj tug'ilgandi.

XVI asr oxiridan Buxoro savdogarlari Sibir shaharlari va Xitoy o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarida muhim rol o'ynagandi. Ular Sibirga Xitoy shohi matolari, uy-ro'zg'or buyumlari, chinni idishlar, choy, qullar olib kelishardi. Sibirdan esa asosan mo'yna olib ketilardi.

XVII asrdan boshlab Sharqiy Sibirning rus shaharlariga savdo-iqtisodiy xizmatlar ko'rsata boshlaganlar. Irkutskka 1684 yilda Buxoroliklarning birinchi savdo karvoni oyrot elchiligi bilan birga 170 tuyada mol-tovarlar olib kelganligi haqida ma'lumotlar mavjud<sup>2</sup>.

Bu mol va tovarlar asosan choy va tamakidan iborat edi. Ular qul bozorlariga ham qullar keltirib turganlar.

Shuningdek 1672 yilda Krasnoyarsk shahriga 12 nafar tadbirkor-savdogar kelganligi haqida ma'lumotlar ham saqlanib qolgan. Buxoro savdogarlari Sibir aholisi o'rtasida katta nufuz va obro'-e'tiborga sazovor bo'lganlar. 1795 yildagi 5-ro'yxatga olish taftishida 1370 nafar tatarlar nomi ostidagi aholining 1218 nafari Buxorolik xalq edi.

---

<sup>2</sup> <https://pandia.ru/text/77/472/10604.php>  
[www.pedagoglar.org](http://www.pedagoglar.org)

XVIII asrda Buxoroda jami 20. 000 nafar Buxoroliklar istiqomat qilar edilar.

1897 yilgi aholini ro'yxatga olish daftarlarida ularning soni 11.000, 1926 yilda esa 26 000 nafar deb ko'rsatilgan<sup>3</sup>. Tar uyezdida ularning soni 11715 nafarni tashkil etganligi qayd etilgan. Aslini olganda ular XVIII asrdat 20 000 nafarni tashkil etgan bo'lsa, ajdodlarimizning bolajonligi va serfarzandligini inobatga olsak ularning soni undan bir necha barobar ko'p bo'lishi kerak edi.

Sibir Buxoriylari keyinchalik "Sibir tatarlari" nomi ostidagi milliy nufuzni paydo bo'lishida katta rol o'ynaganlar. "Buxorolik" degan milliy-hududiy an'ana 1930 yillar hujjatlarida ham uchrab turadi.

Ular oxirgi marta 1926 yilda ro'yxatga olingan. Sovet davlatining yagona xalq yaratish g'oyasiga ko'ra, ular tufayli aralashtirib yuborilgan, alohida qayd etilmagan. Turkiston qishloqlari aholisi uzoq yilgi tarixiy aralashishlar davrida o'zlarining asl tillarini unutishgan, qaysidir ma'noda urf-odatlarini ham saqlab qolgan, ular orasida xali hanuzgacha turkistonliklarni eslatadigan shaxslar uchrab turadi.

Bundan tashqari, Isroil va AQSH davlatlarida ham Buxoro yahudiylarining maxsus Buxoro kvartallari bor.

---

<sup>3</sup> <https://ural.academic.ru/1781>  
[www.pedagoglar.org](http://www.pedagoglar.org)